


## Korxonalar va tashkilotlar (2018 yil yanvar-oktabr)

2018 yilning yanvar-oktabr oyida Navoiy viloyatida 1791 takorxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 672 taga ko'pdir.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 1399 taga (14,8 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 10868 tani tashkil etgan.


### Korxonalar va tashkilotlar yillar kesimida soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'zida tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, xayotga tadbiiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

### Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




### Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 noyabr holatiga, birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 19,6 % savdoda, 16,2 % sanoatda, 9,2 % qurilishda, 11,5 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 7,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,1 % tashish va saqlash, 1,4 % axborot va aloqa, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 28,4 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar kesimida soni, o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) birlikda




### Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi

|                            | Ro'yxatdan o'tgan | Faoliyat ko'rsatayotgan | 2018-yil 1 noyabr xolatiga |                            |
|----------------------------|-------------------|-------------------------|----------------------------|----------------------------|
|                            |                   |                         | Ro'yxatdan o'tgan, %       | Faoliyat ko'rsatayotgan, % |
| <b>Navoiy viloyati</b>     | <b>11133</b>      | <b>10868</b>            | <b>100</b>                 | <b>100</b>                 |
| <i>Shahar va tumanlar:</i> |                   |                         |                            |                            |
| Navoiy sh.                 | 3290              | 3171                    | 29,6                       | 29,2                       |
| Zarafshon sh.              | 703               | 687                     | 6,3                        | 6,3                        |
| Konimex                    | 338               | 327                     | 3,0                        | 3,0                        |
| Qiziltepa                  | 1236              | 1202                    | 11,1                       | 11,1                       |
| Navbahor                   | 976               | 961                     | 8,8                        | 8,8                        |
| Karmana                    | 1923              | 1897                    | 17,3                       | 17,5                       |
| Nurota                     | 935               | 923                     | 8,4                        | 8,5                        |
| Tomdi                      | 190               | 185                     | 1,7                        | 1,7                        |
| Uchquduq                   | 428               | 415                     | 3,8                        | 3,8                        |
| Xatirchi                   | 1114              | 1100                    | 10,0                       | 10,1                       |

2018 yil yanvar-oktabr holatiga 1791 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan 60,1 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Navoiy shahrida (408 ta), Karmana (274 ta), Nurota (198 ta) tumanlarida va Zarafshon shahrida (191 ta) tashkil etilgan. Eng kam Uchquduq (100 ta), Konimex (63 ta) hamda Tomdi (34 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

## Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda




Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (263 ta), sanoatda (331 ta), qurilishda (205 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (308 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (32 ta), axborot va aloqada (38 ta) hamda tashish va saqlashda (73 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

|  | 2016 yil 1 noyabr xolatiga |                          |                           | 2017 yil 1 noyabr xolatiga |                          |                           | 2018 yil 1 noyabr xolatiga |                          |                           |
|--|----------------------------|--------------------------|---------------------------|----------------------------|--------------------------|---------------------------|----------------------------|--------------------------|---------------------------|
|  | Jami                       | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy soniga nisbatan, % | Jami                       | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy soniga nisbatan, % | Jami                       | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy soniga nisbatan, % |
| Sanoat   | 160                        | 111,1                    | 21,1                      | 231                        | 144,4                    | 20,6                      | 331                        | 143,3                    | 18,5                      |
| Savdo  | 154                        | 95,7                     | 20,3                      | 190                        | 123,4                    | 17,0                      | 263                        | 138,4                    | 14,7                      |
| Qurilish   | 63                         | 66,3                     | 8,3                       | 81                         | 128,6                    | 7,2                       | 205                        | 253,1                    | 11,4                      |
| Qishloq va o'rmon xo'jaligi                        | 135                        | 123,9                    | 17,8                      | 260                        | 192,6                    | 23,2                      | 308                        | 118,5                    | 17,2                      |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar          | 82                         | 105,1                    | 10,8                      | 130                        | 158,5                    | 11,6                      | 171                        | 131,5                    | 9,5                       |
| Tashish va saqlash                                 | 45                         | 204,5                    | 5,9                       | 67                         | 148,9                    | 6,0                       | 73                         | 109,0                    | 4,1                       |
| Axborot va aloqa                                   | 28                         | 59,6                     | 3,7                       | 12                         | 42,9                     | 1,1                       | 38                         | 316,7                    | 2,1                       |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 15                         | 107,1                    | 2,0                       | 22                         | 146,7                    | 2,0                       | 32                         | 145,5                    | 1,8                       |
| Boshqa turlari                                     | 76                         | 124,6                    | 10,0                      | 126                        | 165,8                    | 11,3                      | 370                        | 293,7                    | 20,7                      |


### Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



### Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 noyabr holatiga 8856 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 3379 ta, oilaviy korxonalar – 676 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar –4561 ta, va boshqalar 240 tani tashkil etadi.


## Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 noyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 92 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 59 taga yoki 55,9 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 61 tasi qo'shma korxonalar, 31 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar davomida o'sishi, birlikda






**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda**

**Qo'shma korxonalar**  
**Xorijiy korxonalar**

**Jami xorijiy kapitali ishtirokidagi korxonalar soni**




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Navoiy shahar 33 ta (35,9 %), Karmana tumani 26 ta (28,3 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Konimex 2 ta (2,2 %), Xatirchi 2 ta (2,2 %) va Tomdi 1 ta (1,1 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 noyabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 57 ta (62,0 %), savdoda 6 ta (6,5 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 13 ta (14,1 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 8 ta (8,7 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa tashish va saqlashda 3 ta (3,3 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 4 ta (4,3 %) va qurilishda 1 ta (1,1 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam

ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (birlikda)



2018 yilning yanvar-oktabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 32 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 30 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 8 ta, Turkiya Respublikasi – 2 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-7 ta va Koreya Respublikasi – 4 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yil davomida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-oktabr holatiga) birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 16 ta, savdoda 3 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 7 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 2 ta va boshqa faoliyat turlarida 4 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
soni**

|   | 2017 yil yanvar-oktyabr | 2018 yil yanvar-oktyabr |
|---|-------------------------|-------------------------|
| <b>Sanoat</b>   | <b>1</b>                | <b>16</b>               |
| <b>Savdo</b>  | <b>-</b>                | <b>3</b>                |
| <b>Qurilish</b>   | <b>-</b>                | <b>-</b>                |
| <b>Qishloq va o'rmon<br/>xo'jaligi</b>                            | <b>1</b>                | <b>7</b>                |
| <b>Yashash va ovqatlanish<br/>bo'yicha xizmatlar</b>              | <b>-</b>                | <b>2</b>                |
| <b>Tashish va saqlash</b>   | <b>-</b>                | <b>-</b>                |
| <b>Axborot va aloqa</b>   | <b>-</b>                | <b>-</b>                |
| <b>Sog'liqni saqlash va<br/>ijtimoiy xizmatlar<br/>ko'rsatish</b> | <b>-</b>                | <b>-</b>                |
| <b>Boshqa turlari</b>   | <b>-</b>                | <b>4</b>                |


**Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni**

2018 yil 1 noyabr holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 8781 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 noyabr holatiga qaraganda 13,3 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 2672 tasi (30,4 %) Navoiy shahriga, 1644 tasi (18,7 %) Karmana, 972 tasi (11,1 %) Qiziltepa hamda 788 tasi (9,0 %) Xatirchi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 8781 kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2124 tasi (24,2 %) – savdoda, 1734 tasi (19,7 %) - sanoatda, 999 tasi (11,4 %) - qurilishda, 1208 tasi (9,1 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 817 tasi (9,3 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 428 tasi (4,9 %) - tashish va saqlashda, 142 tasi (1,6 %) - axborot va aloqa sohasida, 166 tasi (1,9 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 1163 tasi (13,2 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-oktabr holatiga 1570 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 48,1 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Navoiy shahrida (357 ta), Karmana (229 ta), Nurota (192 ta) tumanlarida va Zarafshon shahrida (181 ta) tashkil etilgan. Eng kam Konimex (57 ta), Uchquduq (80 ta) hamda Tomdi (29 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (263 ta), sanoatda (331 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (307 ta) va qurilishda (205 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (32 ta), axborot va aloqada (38 ta) hamda tashish va saqlashda (73 ta) tashkil etilgan.


## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni



### Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 noyabr holatiga 695 tani tashkil etib, ulardan 676 tasi yoki 97,3 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 40,9 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.


## Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 20,9 % yoki 141 tasi sanoat, 22,5 % yoki 152 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 18,0 % yoki 122 tasi savdo, 26,0 % yoki 176 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,3 % yoki 8 tasi qurilish, 1,2 % yoki 8 tasi axborot va aloqa, 1,0 % yoki 7 tasi tashish va saqlash, 2,1 % yoki 14 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 7,1 % yoki 48 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Statistik registrlarni yuritish bo'limi  
Tel.:71-230-84-56